




ISSN (E) - 2181-1334

№ 21 25.09.2021



UZACADEMIA

ILMIY-USLUBIY JURNAL

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL



Crossref



"ACADEMIA SCIENCE"
ILMIY TADQIQOTLAR MARKAZI
FARG'ONA VILOYATI, FARG'ONA SHAHRI
ISTE'DOD KO'CHASI 1-UY, 1-XONADON
WWW.ACADEMIASCINCE.UZ





"ACADEMIA SCIENCE" ILMIY-TADQIQOTLAR MARKAZI

UzACADEMIA

ILMIY-USLUBIY JURNALI
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
ISSN (E) – 2181 - 1334

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

VOL 3, ISSUE 1 (21), SEPTEMBER 2021
PART - 2



www.academscience.uz



Volume 3. Issue 1 (21), september 2021

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНЬЕ

1.	5 TASHABBUS DOIRASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLARNING YOSHLAR HAYOTIDAGI AHAMIYATI <i>Qo'ziboyeva Dillola To'lqinovna</i>	5
2.	DINIY QADRIYATLAR VA UNING SHAKLLANISHINING MILLIY XUSUSIYATLARI <i>Zokirova Ra'no Islom qizi</i>	8
3.	DEFEKTOLOGIYA FANI, UNING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI <i>Kalibaeva Gulnur Nurabilla qizi, Tasbayeva Gulbaxar Muratovna</i>	12
4.	MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING O'RNI VA AHAMIYATI <i>Ro'zmatova Farahongiz</i>	14
5.	MASAL JANRINI DARSLIKLARDA O'RGANILISHI <i>Raxmanova Nilufar Nusrat qizi</i>	16
6.	ОСОБЕННОСТИ ПИСЬМЕННОЙ РАБОТЫ НА УРОКАХ РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ <i>Жаримбетова Сапаргуль Курбанбаевна</i>	23
7.	SHEVANI DIALEKTAL MATNLAR BILAN ORGANISH <i>Avazova Nilufar Oqiljon qizi,</i>	27
8.	SOYA O'SIMLIGINI TAKRORIY EKIN SIFATIDA YETISHTIRISHNING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI <i>Xoliqova M.A, Matniyazova H.X, Boltayeva M.D</i>	33
9.	LOGARIFMIK TENGSIZLIKARNI YECHISH USULLARI <i>Yoqubov Xabiljon Xakimjon o'g'li</i>	36
10.	ИЧИМЛИК СУВНИ ТОЗАЛАШДА ЭЛЕКТОРФИЗИК ТАЪСИРЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ <i>A.A. Турдибоев , Н.А. Айтбаев</i>	40
11.	ЁШЛАРНИНГ КЕЛАЖАҚДАГИ ҲАЁТ РЕЖАЛАРИНИ БЕЛГИЛАШДА СОЦИАЛ РАҶОБАТНИНГ ЎРНИ <i>Абдурахмонов Умиджон Усмонович</i>	47
12.	"QO'QON XONLIGI HUNARMANDCHILIK TARIXIGA NAZAR" <i>Islomov Abdulaziz Latif o'g'li, Ozodxujayeva Lobar Akramjon qizi</i>	52
13.	RAMZ VA UNING LINVOMADANIY TALQINI (GULLAR MISOLIDA) <i>Muxammadaliyeva Shaxzoda Maxmud qizi,</i>	56
14.	MUNISNING ARAB YOZUVI ILMIGA QO'SHGAN HISSASI <i>Suvonqulova Zarina</i>	62
15.	JAMIYATDA UCHRAYDIGAN DEVIANT XULQ-ATVORLI YOSHLAR MUAMMOSI <i>Tadjibayeva Venera Sharafutdinovna</i>	65

SOYA O'SIMLIGINI TAKRORIY EKIN SIFATIDA YETISHTIRISHNING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

*Xoliqova M.A. Tayanch- doktorant. mholiqova1981@mail.ru TVChDPI,
Matniyazova H.X. b.f.n., dotsent. matniyazova@mail.ru TVChDPI
Boltayeva M.D. 2-kurs magistrant TVChDPI*

Annotasiya: Ushbu maqolada takroriy ekinlar va soya o'simligining takroriy ekin sifatida ekilganda xalq xo'jaligidagi ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.

Калим сўзлар: соя, тақрорий экин, дуккак

Аннотация: В этой статье представлена информация о важности второстепенных культур и сои в национальной экономике при посеве в качестве вспомогательной культуры.

Ключевые слова: сои, повторные культуры, бобовые культуры.

Annotation: This article provides information on the importance of secondary crops and soybeans in the national economy when planted as a secondary crop.

Key words: soybeans, re-sowing, bean

Takroriy ekinlar-daladagi asosiy ekinlar hosili yig'ib olinganidan keyin, o'rniغا ikkinchi marta ekiladigan ekinlar bo'lib, ekilgan yilining o'zidayoq hosil beradi. Yerdan unumliroq foydalanishga va maydon birligidan ko'proq miqdorda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini olishga imkon beradi. Kuz fasli iliq, uzoq davom etadigan sernam va sug'orma dehqonchilik mintaqalarida qo'llaniladi. O'g'itlar yetarli va sug'oriladigan sharoitlarda takror ekilganda hosildorlik pasaymaydi(4).

Respublikamizda bugungi kunda dukkakli ekinlar, jumladan, soyaning yangi navlarini yaratish, sinash va muayyan tuproq-iqlim sharoitga moslashtirish, serhosil, sifatli, ekologik toza don mahsuloti yetishtirish, saqlash hamda tuproq unumdorligini oshirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'l kamiz tuproq-iqlim sharoiti soya yetishtirish uchun juda qulay bo'lib, uni barcha viloyatlar va Qoraqalpog'istonda asosiy hamda takroriy ekin sifatida yetishtirish mumkin(1).

Takroriy ekin sifatida ekilgan soya suv va shamol eroziyasining zararli ta'sirini kamaytiradi, tuproqni organik moddalar bilan boyitadi va uning ikkilamchi sho'rланishi kamayadi. U bug'doy hosilidan bo'shagan maydonlarga ekilganda ekinzor mikroiqlimi, dala fitosanitar holati, tuproqdagi mikrobiologik jarayonlar yaxshilanadi. Soyadan keyin joylashtirilgan ekinlarning hosildorligi 20–30 foizga ortadi(2).

Soya o'simligining yana bir afzalligi shundaki, u takroriy ekin sifatida ekilsa, bir yerdan ikki marta don olishga erishiladi va tuproq organik moddalar bilan boyiydi.

Prezidentimizning 2017 yil 14 martdagи “2017-2021 yillardа respublikada soya ekini ekishni va soya doni yetishtirishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi” qaroriga asosan, bundan to'rt yil oldin yurtimizda birinchi marta 12 ming gektardan ortiq maydonga soya ekilib, 14 ming tonna don olindi va ushbu xomashyoni qayta ishlash hisobiga aholiga 2 ming tonnadan ortiq soya yog'i, parrandachilik korxonalariga 10 ming tonna yuqori ozuqali shrot yetkazib berildi. 2020 yilga kelib bu ko'rsatkich 28,2 ming gektarga yetdi. Demak, soyani qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlar miqdori ikki baravardan ziyodga ortdi.

So'nggi o'n yilda jahon bo'yicha ekilgan soya maydonining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 1,7 foizni tashkil qildi va hosildorlik gektar boshiga 1 foiz oshib keldi. Natijada o'tgan yili dunyoda soya ekilgan yerlar 122 million gektardan ko'proqqa (2010 yilga nisbatan o'sish — 19 foiz), o'rtacha hosildorlik 28 sentnerga yetdi(3).

Bugungi kunda soya navlarining o'sishi, rivojlanishi, hosildorligiga ekish usuli, sug'orish tartibi, ekish me'yollarining ta'siri borasidagi ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratish talab etilmoqda. Shundan kelib chiqib, soya navlarini maqbul ekish usullari, me'yorlari va sug'orish tartiblarini o'rganish dolzarb vazifalardan hisoblanadi(1,2).

Soya - issiqsevar o'simlik. Navning tezpisharligiga bog'liq ravishda soyaga vegetasiya davrida 1700-3200°C foydali harorat yig'indisi zarur. Uning biologik harorat minimumi 10°C, ammo bu ko'rsatkich ayrim davrlarda o'zgarishi mumkin. Urug'larning unib chiqishida minimal harorat 6-7°C, muqobil - 20-25°C ni tashkil etadi. Maysalarning qiyg'os unib chiqishi uchun 12-14°C harorat zarur. Maysalash 19-20°C da 6-7 kunda, 15-17 °C da esa 12 kunda unib chiqadi. Maysalar 2-3°C ayozlarga bardosh bera oladi. Issiqlikka eng yuqori talab reproduktiv organlarining shakllanishida (21-23°C) va gullah davrida (20-25°C) kuzatiladi. Gullah davrida harorat 17°C dan pasaysa, gullah to'xtaydi. Soyaning normal rivojlanishi uchun muqobil harorat 18-25°C atrofidadir. 35°C dan yuqori harorat g'unchalar va gullarning to'kilib ketishiga olib keladi. Harorat 14°C dan pasaysa, don tugish jarayoni to'xtaydi. Haroratning 10°C dan 33°C gacha ko'tarilishida unib chiqish, gullah davri 45 dan 21 kungacha qisqaradi. Unub chiqish, gullah davrining davomiyligi ertangi ekish muddatdan kech muddatga qarab kamayib boradi. Takroriy ekilganda unib chiqish, gullah davri keskin qisqaradi. Shuning uchun O'zbekiston sharoitida soya navlari kuzgi bug'doydan bo'shagan yerkarda takroriy ekilganda amal davri ancha qisqarganligi kuzatiladi. (1)



Samaqand viloyatida 2021 yil takroriy ekin sifatida ekilgan Ustoz na Nina navlari

Demak, soya-takroriy ekin sifatida yetishtirilganda bir yilning o‘zida bir maydondan 2-3 marta hosil olinadi, chorva uchun to‘yimli ozuqa ba’zasi yaratiladi, tuproq unumdorligini saqlash va oshirishga sharoit yaratilib, toza ekologik muhit vujudga keladi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Soya /X.N. Atabayeva.Toshkent 2004.
2. Takroriy ekinlar farovonlik manbai./T.E. Ostonaqulov,N.X.Xalilov, M.K.Lukov, S.T. Sanayev.Qo’llanma. Samarqand 2017
3. <https://yuz.uz/uz/news/qosh-ekinning-qosha-qosha-foydasi-bor>.
4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T/ “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005 yil ma’lumotlari.
5. Takroriy ekin sifatida ekilgan soyaning ayrim mahalliy va xorijiy navlarining morfoxo‘jalik ko‘rsatkichlari. M. A. Xoliqova, H. H. Matniyazova, A. A. Azimov. IO‘zbekiston agrar fani xabarnomasi. №3 (81) 2020 yil.
6. Samarqand viloyatida soya etishtirish agrotexnologiyasil. // M.Ahtamov, M.Hayitov, M.Raxmanov. Tavsiyanoma. Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti. Toshkent – 2017
7. Xoliqova M.A., Matniyazova H.X.. «Soya o_ simligining botanik va biologik tasnifi hamda ahamiyati ».—Barqaror rivojlanishda uzlusiz ta‘lim:Muammo va yechimlarl Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ilmiy ishlar To’plami Tom II 21-24 may, 2019 yil Chirchiq sh. 318-319 bet.